

2-aprel - Xalqaro bolalar kitobi kuni

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,

Vatan bittadir!

N:13 (67022)

2015-yil

30-mart



www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

XAZINASAN, TILIM BURRO MISLSIZ OFTOB, AYLAGAN KITOB!

Buxoro viloyati, Vobkent tumanidagi 21-umumta'lim maktabining «Ilhom» to'garagi a'zosi Dildora Mufazzalova ustozi Dilnoza Narzullayeva bilan navbat-dagi tadbiriga tayyorgarlik ko'rishmoqda.

Jizzax viloyati, Zafarobod tumanidagi 12-umumta'lim maktabining 1-«B» sinf o'quvchilariga sinf rahbari Zulfiya Jumayeva momolari-mizdan qolgan beabajo meros haqida qiziqarli rivoyatlarni so'zlab beradi.

Yurtim jamoliday ko'rkan va nafis, Do'ppilarda aks etar bahor

ERTAKLAR YAXSHILIKKA YETAKLAR

Sh. MAXMADIYEV va S. RAHIMOV olgan suratlari



«Barkamol avlod»da bayram sayli

«Barkamol avlod» respublika bolalar texnik ijodiyot markazida «Navro'zing, muborak, aziz Vatanim!» shiori ostida, texnik ijodkorlik ko'rgazmasi hamda varrak sayli bo'lib o'tdi.

Teknik ijodkorlik ko'rgazmasida «Aviamodel», «Kemasozlik», «Robottexnika», «Duradgorlik», «Yosh musavir», «Liboslar dizayni» to'garaklari a'zolarining ijodiy ishlari namoyish etildi.

Men bir yildan beri «Karving» to'gariga qatnashaman. Ustozimiz Umid aka Xolmirzayev bizga poliz mahsulotlari va buyumlarga bezak berishning turli usullarini o'rnatgadir, — deydi Chilonzor tumanidagi 280-umumta'lum maktabining 8-sinf o'quvchisi Gulsanam Turg'unova.

Chilonzor tumanidagi 217-umumta'lum maktabining 4-«G» sinf o'quvchisi Shukur Shukurovning asfaltga chizgan suratlari ko'pchilikda katta qiziqish uyg'otdi.

Men ushbu suratimda doshkozonda sumalak pishirayotgan ayllarni, qo'shiq aytib, raqsga tushayotgan qizlarni, shuningdek, tabiatimizning go'zal manzarasini aks ettirdim,

— deydi «Yosh musavir» to'garagi a'zosi.

Tadbir davomida to'garak qatnashchilar tomonidan Vatan, baxtli bolalik, bahorni tarannum etuvchi she'r va qo'shiqlar davraga chinakam bayramona kayfiyat ulashdi.

Mahmudjon AZIMOV

«Bir bor ekan, qadim zamonda usoq mamlakatlardan birida podshoh yashagan ekan. Uning 11 ta o'g'li va Eliza ismli yolg'iz qizi bo'lgan ekan». Qadri bolalar, muqaddimadanoq bu kimning ertagi ekanligini anglab ulgurgandirsiz-a? Topdingiz, bu lavha dunyo bolalarining sevimli «ertakchi amaki'si Xans Kristian Anderssenning sevimli «Yovvoyi oqqushlar» asaridan.

Bilsangiz, 1967-yilda Xalqaro bolalar kitoblari kengashi 2-aprelni «Bolalar kitobi kuni» deb nishonlash to'g'risida qaror qabul qilgan.

Bu sananing tanlanishi bejiz emas, chunki suudi shu kuni bolalarning sevimli ertakchisi Xans Kristian Andersen tavallud topgan. Bir necha yildan buyon bu bayram yurtimizda ham keng nishonlanmoqda. Sana bahonasida Namangan viloyati, Kosonsoy tumanidagi 24-umumta'lum maktabi bilan bog'lanib, u yerdag'i kitobxon o'quvchilarning fikrlari bilan tanishdik:

Xurshida DAVLATOVA, 9-sinf o'quvchisi:

— Ma'lumki, yosh avlodning komil inson bo'lib voyaga yetishida kitobning, xususan, badiiy adabiyotning o'rni katta. Men maktabimiz kutubxonasiiga a'zomani, u yerdag'i yangi kitoblarni mutolaqa qilishni xush ko'raman. Kitob dilga nur beradi, dildagi nurdan esa inson ko'zi ravshanlashadi.

QIRQ BESH YILLIK TAJRIBA

Taniqli shoira bilan ijodiy uchrashuv belgilangan maktabga odatdagiday ertaroq yetib keldim. Maktab hovlisidan o'tib borarkanman, bayramona libosda, boshiga gul-chambarlar taqqan qizlarning hayajon bilan dugonalariga she'r o'qib bera-yotganiga ko'zim tushdi.

O'quvchilar ijodkorlar bilan uchrashuvga hozirlik ko'rishyapti. Beixtiyor ulardag'i hayajon men ga ham ko'chdi. Poytaxtimizdag'i 234-umumta'lum maktabida bu borada olib borilayotgan ezgu ishlar ibratiligi bilan diqqatga molikdir.

Mazkur maktabda qirq



besh yildan buyon kutubxonachi vazifasida xizmat qilib kelayotgan Vasila opa Saidovaning sa'y-harakatlari tufayli ko'plab yozuvchi va shoirlar, o'z ishining ustasi bo'lgan turli soha vakkilari o'quvchilar bilan muloqtda bo'lib, hayotiy tajribalarini o'rtoqlashganlar.

Bilim maskanida taniqli shoira Umida Abduaizimova bilan ijodiy uchrashuv bo'lib o'tdi. Turli sinflarda tahsil olayotgan faol


o'quvchilar bu tadbirga puxta hozirlik ko'rganlari anjunan boshlanishi bilanq sezildi. Adabiyot va san'atga ixosmand o'quvchilar shoira o'zlarini qiziqitqiran savollarni berishdi, ijodkor va o'quvchilar orasida qizq'in mushoira boshlanib ketdi.

— Maktabimizning sobiq o'quvchilar bilan ko'ribish qolgan chog'rimizda, o'quvchilik davrida bo'lib o'tgan bunday uchrashuvlarni xuddi kechagiday maroq bilan eslashdi, — deydi Vasila opa. — Bugungi tadbir ham ular qalbidan bir umruga joy olgan bo'lsa, ne ajab?!

Adiba Mirzayeva, Umriniso To'rayeva, Feruza Karabazova va tuman XTMFMTTE bo'limi kasaba uyushmasi vakili Gulnora Alimboyevaning tadbirini tashkil etishdagi jonkuyarliklarini ko'rib, Vasila opanaving fikrlari to'g'riligini yana bir bor his etdim.

Yusuf ABDULLAYEV

KITOB MO'JIZAGA CHORLAYDI



S. FARMONOV chizgan rasm

Biyuk bobomiz Ibn Sino butun umri davomida ilm-u tadqiqot bilan shug'ullanib, 276 ta kitob yozib qoldirgan. Uning birgina «Ash-shifo» kitobi 18 jilddan iborat.

Nyu-York muzeylaridan birida bo'y 3 metr, qalinligi 1 metr, og'irligi 125 kg. bo'lgan ulkan kitob saqlanadi.

Bebaho ozazina

Yaqinda Respublika bolalar kutubxonasiida Yaponiya xalqaro bolalar adabiyoti kutubxonasining yetakchi xodimi Naoki Yamamoto bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. O'z hamkasblari, Xalq ta'limi vazirligi va «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya jamg'armasi xodimlari bilan o'zaro fikr almashishdan xursand bo'lgan mehmon bolalar kutubxonasi binosini tomosha qilarkan, undagi keng imkoniyatlarni alohida e'tirof etdi.

YAPONIYALIK KUTUBXONACHI BILAN UCHRASHUV

— Mamlakatingizda bolalarni kutubxonalarga, umuman kitob mutolaasiiga jaib qilish borasida oila va maktablarda tashkil etilayotgan tadbirlar, aksiyalar meni hayratga soldi, — deydi yaponiyalik mehmon. — Bugungi texnologiya asrida bolalarni kitobga qaytarish ancha mushkul vazifa, shu ma'noda o'zimizda ham sizning tajribangizdan foydalaniш niyatidaman. Asosiysi, o'zbek bolalar adabiyoti juda boy, bu bilan faxrlansangiz arzysi.

Tashrif yakunida janob Yamamoto o'zbekistonlik kasbdoshlarini o'z vataniga, qadrondan kutubxonasiiga taklif qildi. Unashriyotlarimizda chop etilgan bolalar adabiyoti namunalarini sovg'a tariqasida olarkan, bag'oyat shod ekanini aytib, ushbu kitoblar yapon bolalar kutubxonasiida mehmonnavoz xalqdan esdalik sifatida uzoq saqlanishini qayta-qayta ta'kidladi.

Alisher FAYZULLAYEV

Kumushoy UMAROVA, 8-sinf o'quvchisi:

— Kitob mutolaasi tufayli inson olamni ko'radi, anglaydi. Zaminni Quyosh isitsa, inson qalbini kitob yoritadi. Hozirgi axborot asrida ma'lumotlarni internetdan olish mumkin, ammo kitobdan o'rganish, uqish, uning mazmunini his qilish alohida e'tiborni talab qiladi.

Suhrobjon PARPIOYEV, 5-sinf o'quvchisi:

— Ba'zida kitob o'qimaydigan, bo'sh vaqtini behuda o'tkazadigan o'quvchilarga siz ham kitob bilan do'stlashing, undagi hikoyalar, ertaklarni o'qib, zavqlaning, ularni o'rtoqlaringizga ham gapirib bering, degim keladi.

Maktab kutubxonachisi Muhabbat opa Azizovning aytilishicha, 5-sinf o'quvchisi Diyora Mamasoliyeva, 9-sinf o'quvchisi Dilrabo Abdullayeva, 6-sinf o'quvchisi Sarvinoz Akramova, 7-sinf o'quvchisi Gulbahor Umarovalar ham kitobxon o'quvchilardan ekan.

Darhaqiqat, ota-bobolarimiz kitobni oftobga bejiz qiyoslashmagan, kitob mutolaasi bolalarning do'st orttirishida, ular qalbida yurtga muhabbat, Vatanga sadoqat, mehr-oqibat tuyg'ularini kamol toptirishda eng yaxshi vosita hisoblanadi.

Ozoda TURSUNBOYEVA

GIYOHVANDLIK ASR UABOSI

Maktabimizda «Biz giyohvandlik va kashandalikka qarshimiz» shiori ostida insholar, rasmlar, devoriy gazetalar bo'yicha ko'rik-tanlov o'tkazildi.

Tanlovdan faol ishtirok etgan 6-«A» sinf o'quvchilari Sevinch O'Imasova, Orzigu Raimova, Zahro Mamatqulova, Marjona Ahmadjonova, 8-«A» sinf o'quvchilari Shahzod Sharipov, Sattor Rustamjonov, Parviz Aminjonov, Asal Musinova, Marjona Husinova, maktab direktori Aziza Azimbekova, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati yetakchisi Gulnora Nurmuhammedova tomonidan faxriy yorliq va esdalik sovg'alarini bilan taqdirlандilar.

Shuningdek, viloyat ichki ishlari boshqarmasi, Respublika ma'naviyat targ'ibot markazi Samarcand viloyat bo'limi tomonidan o'tkazilgan insholar tanlovida maktabimizning 8-«A» sinf o'quvchisi Asalxon Muzaffarova faxrli o'rinni egalladi.

Ushbu tadbir orqali o'quvchilar

BO'SH VAQT SIRI

Sinf rahbarimizning «Vaqt qadri» mavzusidagi ma'naviyat saatidan so'ng o'zimning o'tib borayotgan o'quvchilik yillarimga nazar tashlab, ko'nglim taskin topdi. Erishgan yutuqlarim meni yangi-yangi marralar sari yetaklamoqda.

Suhbat davomida «Vaqt har birimizga ato etilgan imkoniyat. Undan qanday foydalanish esa insonnning o'z qo'lida» deya bizga kun tartibimizni yozib kelishni topshirdi.

Men ham boshsha tengdoshlarim qatori asosiy vaqtimni maktabda ta'lim olish, uy ishlari onama ko'maklashish va darslarga puxta tayyorlanishga sarflayman. Bo'sh vaqtim bo'ldi, deguncha kitob mutolaa qilaman.

Ta'lim maskanimizdagagi barcha o'quvchilar sportga oshno tutingan, desam aslo xato bo'lmaydi. Shundanmi, maktabimizning sportsevarlari respublika «Quvnoq startlar» sport musobaqasida, «Oq yo'l» guruhi esa respublika Yosh



avtonazoratchilarining «Yashil chiroq va xavfsiz g'ildirak» slyotida muvaffaqiyatlari qatnashib kelmoqda. O'zim ham bu kabi tanlovlarda ishtirok etib, viloyatlardan kelgan tengdoshlarim bilan yaqindan tanishdim, ular bilan do'stlashib, juda ko'p narsalarni o'rgandim.

Sinf rahbarimizning «Vaqt qadri» mavzusidagi ma'naviyat saatidan so'ng o'zimning o'tib borayotgan o'quvchilik yillarimga nazar tashlab, ko'nglim taskin topdi. Erishgan yutuqlarim meni yangi-yangi marralar sari yetaklamoqda.

Go'zal JABBOROVA,
Buxoro viloyati, G'ujduvon tumanidagi 28-umumta'lim maktabining 9-«V» sinf o'quvchisi

UZR SO'RASHI MARDNING ISHI

Ishdan endigina kelib, choy ichmoqchi bo'lib turganimda, qizim xonaga shoshib kirdi:

– Oyi, Inobat xolaning mazasi bo'lmay, maydonchada o'tiribdi, tushasizmi? – dedi-yu, javobimni ham kutmay chiqib ketdi. Pastga tushsam, qo'shni asabiyashgan holda o'tiribdi.

– Tinchlikmi, Inobat opa, nima bo'ldi? – dedim biror tartibsizlikni ko'rganda jahli chiqib, qon bosimi oshib ketadigan qo'shniimga.

– E, nimasini aytasiz?! Qo'shnilar bilan barpo etgan bog'imizdagi barg urib ochilgan gallardan, ko'm-ko'k maysalardan baha olay, deb pastga tushgandim. Uch-to'rtta bolalar chug'urashib:

«Inobat xola, qo'shni «dom»dagi bir bola



yo'l ustiga chiqindi to'kib, qochib qoldi. Oldirmoqchi bo'lib o'rqa si da n yugurgandik, uyiga kirib ketdi. Borsangiz, uyini ko'rsatamiz», deb qolishdi. Atrofimiz ozodaligi uchun qayg'urayotgan bolalardan xursand bo'lib, erinmay bordim. Bolani tanidim, uch-to'rt marta chelak ko'tarib, yugurib ketayotganiga ko'zim tushgandi. Demak, har safar shu bola yo'iga chiqindi to'kib

Bizga maktub yo'llabsiz...

Buvijonim hayotida yuz bergan juda ko'plab ibratli voqealarni bizga so'zlab berar edilar.

MENING BUVIM

U kishi juda qattiqqo'l, mehnatkash, shu bilan birga, mehribon inson bo'lganlar. Tomorqada ketmon chopish, loy qorish, g'isht quyish, o'tin yorish kabi ishlarni bemalol uddalay olganlar. Buvimning bir hikoyasi sira yodimdan chiqmaydi.

To'qqiz yoshida ilk bor sigir sog'gan ekanlar. Shunda onalari buvimdan: – Sigirni sen sog'dingmi? – deb so'rabdilar.

– Ha, – debdilar buvim. Onalari indamay qo'liga kadini olib, sigirni qayta sog'a boshlabdilar va yarim kadi sut sog'ib olibdilar. Ammo buvimga boshqa hech qanday tanbeh bermabdlar. Shunday bo'lsa-da, buvum ishni chala qilganligi uchun uyatdan yuzlari o'tdek yonib, terga botibdi.

Goho bunday hikoyalar yodimga tushganida, nega men o'n uch yoshda bo'lsam-da, sigir sog'mayman, deya ta'sirlanaman va men ham buvimga juda-juda o'xshagim keladi.

Diyora RAHMONBERDIYEVA,
Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi 34-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi

BELLASHUVDA O'RНИNI TOPDI

Maktuba Tojiyeva Kasbi tumanidagi 31-umumta'lim maktabining 9-«B» sinfida tahsil oladi.

Tengdoshingizning davlat huquqi asoslari faniga mehri bo'lakcha. U ustozidan mazkur fanning sir-asrорларини puxta o'rganib kelmoqda. Buning samarasini o'laroq, Maktuba tuman va viloyatda bo'lib o'tgan «Bilimlar bellashuvi»da faol qatnashib, yuqori natijalarga erishmoqda.

Jumladan, tengdoshingiz o'tgan yili viloyatda o'tkazilgan «Bilimlar bellashuvi»da q'oliblikni qo'iga kiritib, respublika bosqichida 2-o'rinni egalladi.

Unga vazirlikning II-darajali diplom va kumush medali topshirildi.

– Ushbu yutuqlarni qo'iga kiritishimda ustozim Muhiddin Jo'rayevning xizmatlari beqiyos, – deydi Maktuba quvonch bilan.

– Buning uchun o'qituvchimdan minnatdorma.

Normurod NAZAROV,
Qashqadaryo viloyati

qochar ekan-da... Asta eshikni taqillatdim. Bola eshik ortidan «men tashlamadim», desa onasi «Sizning nima ishingiz bor?», deydi. Ha, esladim, bir marta maydonchada o'tirganimda, o'sha ayol yelim xaltani yo'lakka qo'yib ketganiga ko'zim tushgandi...

Shu payt maydoncha yonidan o'rtal yoshlardagi kishi chelak, supurgi, yokandoz ko'targan ayol bilan o'tib qoldi. Oradan biroz vaqt o'tdi. U oldimizga kelib: «Qo'shnilar, ayolim va o'g'limning qilgan ishi uchun sizlardan uzr so'rayman. Chiqindi to'kilgan joyini tozalab qo'yidik, bu ish boshqa takrorlanmaydi», dedi. Sal narida esa bolanlig onasi boshini xam qilib turardi.

– Ha, yashang, sizga katta rahmat, uka! Oolangizning xatosini vaqtida anglabsiz. To'g'ri xulosa chiqarish, aybni tan olish ham mardning ishi. Ozodalikka har birimiz mas'ulmiz, – qo'shib qo'ysi qo'shni yigitning ortidan qarab qolarkan. Shu chog'da Inobat xolaning yuzlari mammunlikdan yorishib ketgandi...

Nodira NAZAROVA

QISHLOQ TARIXI - VEB-SAYTDA!



Bugungi o'quvchi bilim va malakaga ega bo'lishi, jahon hamjamiyatidagi tengdoshlari bilan tillasha oladigan darajada axborot texnologiyalari bilan qurollangan bo'lishi lozim.

Sayt joriy qilingandan beri unda joylashtirilgan elektron darsliklar, testlar va boshqa manbalar foydalanuvchilar tomonidan ijobiy baholanib, bir necha marta yuklab olingani ushbu saytning naqadar foydali manba ekanligidan dalolat beradi. Ayniqsa, ingliz tilini o'qitish metodik qo'llanmasi bir necha bor ko'rilib, ko'chirib olingani bu mavzuning dolzarb va muhim ekanligi isbotidir.

Anora internetda o'zi singari qiziquvchan o'quvchilar bilan do'stlashib, muntazam aloqa bog'lashga ham muvaffaq bo'lib, tajribalarini o'rtoqlashmoqda. Hatto, sinfdoshlari qatori keksalar ham unga yaqindan yordam berish maqsadida qiziqarli yangiliklar va ma'lumotlarni taqqid etishmoqda. Anora o'zi tug'ilib o'sgan Nanay qishlog'i tarixini yaxshi biladigan keksa taxon va onaxonlardan olgan ma'lumotlarni o'z saytiga joylashtirdi. Uning bu xayrlı ishidan barcha qishloqdoshlari mammun.

Jahon sahnida yuz berayotgan o'zgarishlardan boxabar bo'lindhda internetdan ko'ra tezkor manbanı topish mushkul bo'lgan bir davrda Anoraning bu muvaffaqiyati tengdoshlariga iibrat bo'lib, ularda fan cho'qqilarini egallashda bir turkti bo'ladi, degan umiddamiz.

Sardorbek INOMIDDINOV
Namangan viloyati



MAHORAT MAKTABINING OPASI

Axborot asrining o'quvchisiga tarbiyani quruq so'z bilan emas, balki iibrat ko'rsatish, tashabbuskorlik, tashkilotchilik fazilatlari bilan ham singdirish mumkin.

Furqat tumaniida 2-umumta'l'm maktabi Farg'onan viloyatida «Nafis fanlar» yo'naliishi bo'yicha mahorat maktabi hisoblanadi. Informatika, rus tili, ona tili fanlari bo'yicha «tayanch maktabi», deb e'tirof etiladi. Maskanda «Eng yaxshi sinf», «Eng yaxshi o'quvchi» nominatsiyalari bo'yicha har oy natijalari munta-zam e'lon qilib boriladi.

Yaqinda 3-«B» sinf rahbari Mahoratxon Alimova «Eng yaxshi sinf rahbari» ko'rik-tanlovida tumanda 1-o'rinni egallab, viloyat bosqichiga muvaffaqiyatli ishtirok etdi. Tashabbuskor pedagog boshlang'ich sinflarda «Yosh savodxon» fan to'garagini yuritib, unga 30 dan ziyod o'quvchilarni jalb etgan. Sinf xonasida jonli burchak tashkil etilgan bo'lib, o'quvchilar jonivorlar va o'simliklarni ustozlari nazoratida parvarishlaydilar. O'quvchilarni ona tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratgan pedagog ayni kundarda «Har bir o'quvchiga bir tup ko'chat» loyihasida ham faol qatnashmoqda. Sinf o'quvchilari ustozlari bilan birga «Novvoy va bola», «Alisherning bolaligi», «Onalarga ehtirom» hamda «Ustozim - oftobim» kabi bir qator tadibirlari yushtirishdi. Ustoz husnixat, rasm chizishda rang tanlash borasida qo'shimcha mashg'ulotlar olib boradi.

Bugungi kun tarbiyachisi har jahbada mana shunday faol, intiluvchan bo'lsagina, ko'zlagan maqsadimizga erishamiz.

Xurshid RAHMATULLA o'g'li

GULXIROJ - «ENG FAOL O'QUVCHI» NOMINATSİYASI G'OLIBI

Hozirda respublikamiz umumta'l'm muassasalarida o'quvchilarining bo'sh vaqtlarini mazmuni o'tkazish maqsadida tashkillashtirilgan fan, hunar va sport to'garaklarining faoliyatni ertamiz egalarining barkamol avlod bo'lib ulg'ayishida muhim omil bo'lmoqda.

Jizzax tumanining chekka hududlaridan birida joylashgan 42-umumta'l'm maskaniga kirib borar ekansiz, darsdan so'ng to'garaklar ga jalb etilgan o'quvchilarga ko'zingiz tushadi. Birgina «Adabiyot» to'garagini olaylik. Ustoz Islom Abdusaliqov rahbarlik qilayotgan mazkur to'garak a'zolaridan shu kunga qadar ko'plab ona tili va adabiyot o'qituvchilarini yetishib chiqdi. Atlas ko'yaklar yarashar egningizga, Jamalaklar ko'rkar berar sochingizga. Lol qoladi o'zga yurt mehmonlari, Ming asrdan so'zlagan do'ppingizga.

Dunyo ichra yagona va tengsizlar, Muqaddassiz, azizsiz, o'zbek qizlar! Bu satrlar «Adabiyot»ning faollaridan biri, 8-«A» sinf o'quvchisi Gulxiroj Qo'shboqovaning ijod namunalaridan. Uning ijodi bilan tanishar ekansiz, lolaqizg'aldoqlarga burkangan qirlar, so'lim qishloq manzaralari ko'z o'ngingizda namoyon bo'ladi. Maktabning «Eng faol o'quvchi» nominatsiyasi g'olib bo'lgan Gulxiroj Zulfiyaning 100 yillik yubileyiga bag'ishlangan «Zulfiyaxonim izdoshlari»

tanloving hududi bosqichida g'olib topilib, tumanda 99 ball to'pladi. Ko'rik-tanlov tashkilotchilari faxriy yorliq bilan taqdirlar ekan, viloyat xotin-qizlar qo'mitasi raisi Gulnora To'rayeva yosh iste'dod egasining chiqishini alohida e'tirof etdi.

Nurbek NURALI o'g'li

Sadoqatning javobi
(Rivoyat)

iibrat



Qadim zamonda kuch-quvvatga to'lib, balog'atga yetgan yigitlarning daryo, tog oshib, o'z omadlarini izlab yo'lga chiqish odati bo'lgan ekan. Bir kuni bolalikdan birga o'sgan ikki do'st yo'lga chiqishibdi. Yo'l yursa ham mo'l yurib, bir joyga yetganlaridan horib-charchab dam olishga o'tirishibdi. Tamaddi qilishgach, uyqu etlibdi-da, yaqinlarida qo'qqayib turgan xarsangga bosh qo'yib, uyquga ketishibdi. Tong oqara boshlaganda do'stlardan biri uyg'onib ketibdi. Bexosdan tosh yuzasidagi yozuva ko'zi tushibdi, unda:

- Toshni ag'darsangiz, beba boylikka ega bo'lasiz, - deb yozilgan ekan. Yigit hayajonga tushibdi. Keyin esa fe'li aynibdi.

«Agar sherigimni amallab biron yoqqa jo'natib yuborsam, boylikning hammasiga o'zim ega bo'lardim», deb o'yabdi.

Dilining tub-tubidan kelayotgan:

- Axir, u sening faqat shering emas, do'sting ham! Nahot, do'stingga xiyonat qilsang? - degan ovozga qulq ham solmabdi.

Toshdag'i yozuv ustiga kamzulini yopib, dod sola boshlabdi.

- Ichim... ichim yonyapti... Menga nimadir bo'ldi!...

Shovqini eshitib, do'sti uyg'onibdi.

- Sizni opichlab, yaqin oradagi qishloqmi yo shahardagi tabibga olib boraman, - deb yelkasini tutgan ekan:

- Yo'q, men yo'lga yaramayman! Tabibni olib kela qoling, jon do'stim, bo'lmasa o'lib qolaman! - debdi.

Mehribon do'st shoshganicha yugurib ketibdi. Yaqindagi shaharga yetib, bir darvozani qoqqan ekan, uni hurmat-ehtirom bilan ichkariga taklif etishibdi.

- Do'stim... do'stim... yo'lda... degan gapini oxirigacha ham eshitmay:

- Nima muammo bo'lsa, bir lahzada hal qilamiz. Siz esa hozir toj kiyasiz, - deyishibdi.

Ma'lum bo'lischicha, shahar sultoniga vafoti oldidan:

- Mendan keyin shaharga kim birinchi bo'lib tashqaridan kirib kelsa, o'shani o'rningma o'tqazinglar, - deya vasiyat qilgan ekan...

«Bemor» yigit esa sheri g'etgach, qora terga botib, toshni ag'darsa, uning ostida: «Kim shaharga birinchi bo'lib kirsira, u taxta o'tiradi», deb yozilgan ekan. Yigit peshonasiga mushlabdi...

Albatta, bu rivoyat. Lekin sadoqatning javobi ezzulik, ichi qorallikning javobi pushaymon... Bu haqiqat hech qachon eskirmaydi.

Qutlibeka RAHIMBOYEVA

Lesson 29

Remember! (Yodda tuting!)

School is a large community in which all of us wish to be happy. In school all pupils work together with everyone caring for and respecting each other. If everyone follows some important rules, then all of us will be happy. Read them, learn and follow the given rules.

- Always do your best.
- Be prepared – be on time.
- Be polite (don't be rude).
- Do not waste your time.
- Be quiet around the school.
- Eating or Chewing is only possible at breaks or lunchtimes.
- Play in the right place.
- Turn off your mobile phone at school.




Differ from the synonyms (Sinonimlarni farqlang)

Read and use the appropriate words.


Say – tell – talk – speak

1. She likes to ... stories, and she is a good storyteller.
2. I can't understand you, ... louder please.
3. He likes to ... about his work and his friends.
4. I believe that she never ... lies.
5. I must ... to you.
6. What did an old man in the street ... when I saw you together with him.
7. Let's ... a little about our summer holidays.
8. My uncle ... two or three foreign languages.
9. Please ... me where you live.
10. Suddenly he rose and ..., «I must be going».




Use each demonstrative pronoun in his place (Olmoshlarni o'z o'rnida qo'llang)


Look at the pictures. Complete the sentences with *this*, *that*, *these*, or *those*.




1. I like picture.



2. cake is delicious.



3. are my children.



4. How much is television?

*Farangiz RAHIMOVA,
poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi
250-umumta'lum maktabining 9-sinf o'quvchisi*

Let's learn English!

Together forever (Doimo birgamiz)



It's not difficult,
Open dream with key.
Believe, give me your hand,
Don't worry, will be OK.

We shields for you,
You are not alone.
As you happiness,
Every time we are one.

*Orastabonusu TILOVBERDIYEVA,
Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi
229-umumta'lum maktabining 9-sinf o'quvchisi*

The present of wonderful world (Mo'jizaviy olam tuhfasi)

Read and put the right meaning of these words.

- | | |
|----------------|---|
| Desert – ... | a) a large land that is very dry, so not many plants grew there. |
| Forest – ... | b) a large, moving body of water that starts at a source in higher land. |
| Island – ... | c) a body of water, surrounded by land. |
| Lake – ... | d) a large area of land where many trees grew. |
| Mountain – ... | e) a large body of salt water nearly or partly surrounded by land. They are much smaller than an ocean. |
| River – ... | f) land that is surrounded by water and smaller than a continent. |
| Sea – ... | g) land that rises very high. They are much higher than hills. |

Do you know this? (Bilasizmi?)

Read and translate the following words and phrases.

wise – why's	know – no
write – right	where – wear
hear – here	there – their
wore – war	you're – your
four – for	buy – by

Dinara SHAKIROVA tayyorladi

Test

Choose the appropriate pronoun.

1. I saw ... father at our school this morning.
a) you b) its c) him
d) your e) them.
2. I saw your father at school but he didn't see ...
a) my b) me c) them
d) her e) hers.
3. A friend of ... asked you to come in time.
a) your b) you c) yourself
d) yours e) my.
4. I gave my pen to Lobar. She lost ...
a) my b) your c) her
d) his e) hers.



*Ibrohim FAYZIRAHMONOV,
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumanidagi
54-umumta'lum maktabi o'quvchisi*

SHE'RIYAT DARSI

Tahririyatimizga ijodkor o'quvchilarimiz o'zlarining his-hayajonlarini yashirolmay «She'r yozdim, iltimos, gazetada chiqishiga yordam bersangiz» deya maktub yo'llashadi.

She'r o'zi asli nima? Nega u, bu qadar ko'ngillarni o'ziga mahliyo etdi ekan? Ushbu savollarga javob topish

BAHOR QO'SHIG'



Hovlimiz etagida,
Yana olcha gullabdi.
Nazarmda, men uchun,
Bahor salom yo'llabdi.

Sipqoraman to'yguncha,
Bahorning xush havosin.
Tinglasam, mast bo'laman,
Qushlarning sho'x navosin.

**JDPI qoshidagi 2-akademik litseyining
1-bosqich o'quvchisi**



Baxtiyor kapalaklar,
Gullar bilan o'ynaydi.
Baxti betakror yurtda
Fasllar ham yayradni.

Duo qilar sahordan,
Buvijonim har doim:
- Shu musaffo zaminni,
O'zing asra, Xudoyim!

**Arofat G'ANIYEVA,
1-bosqich o'quvchisi**

KO'KLAM JUDA ZO'R FASL

Yurtga keldi gul fasl,
Falakdan nur yog'iildi.
Qir-adirda o'ynoqlab,
Qo'y-qo'zilar sochildi.

Ko'klam juda zo'r fasl,
Qaldirg'ochlar uchadi.
Qizg'aldoqlar ochilib,
Qir bag'rini quchadi.

Adirlar ham yam-yashil,
Gulgul tusga kiradi.
O'lkamizga yangi yil,
Qayta kirib keladi.

**Kumush ESHONQULOVA,
Surxonaryo viloyati, Angor
tumanidagi 23-umumta'lum
matabining 7-sinf
o'quvchisi**



Navro'z tongi. Shukurjon ichkari kirishga ikkilanib, ostonada turib goldi. Bobosi bu sovg'asini qanday qabul qilarkin?! O'tgan yili xanjar sovg'a qilib, ancha uyatga qolgan edi. O'ziyam, sopi fil suyagidan, olti oyda yasagan edi. Esida: o'shanda ham Navro'z tongi edi. Sovg'asini oq ro'molchaga o'rabi, ichkari kirganda, ko'k choy hidi dimog'iga urilgandi. Bobosi ko'k choy ichadi. «Ko'k choy yaxshi, charchoqni bosadi», deydi.

O'sha kuni yonboshlab yotgan bobosining yoniga ohista cho'kdi. Boshida yangi do'ppi, egnida yoqasi qordeq oq ko'ylik, oq nimcha. Bularni katta tog'asi - Obid aka bayramga olib kelgan edi. Shukurjonning «Nima sovg'a qilsam ekan?» deb o'ylanib qolgani ham kechagidek yodida. Keyin ustaxonasiga kirib, xanjarni olib keldi va «ko'ring, qanaqa zo'r», degandek maqtanib, uni bobosiga uzatdi. Bobo sovg'anii qo'liga olib, behafsal otildi va: «Rahmat, bolam, juda yaxshi ishl!» deya maqtagan bo'ldi-yu boshqa hech nima demadi. Hamma gapni keyinroq onasidan eshitdi. Bobosi: «Bolangga ayt, bunaqa narsalar yasamasin!» debdi. Shukurjon xatosini anglab, bir necha vaqt bobosining ko'ziga ko'rinnmay yurdi va bu yil u kishini quvontirish uchun biror arzigelik sovg'a tayyorlashni ham unutmadi. Qo'lida gulday hunari bor-ku! Shunday narsa yasasinki, bobosi xursand bo'lsin! Bir



BESH BAHO

Maktab tomon boraman olg'a,
Yuragimga maqsadlar tuyib.
Gar maktabdan besh olib qaytsam,
Onajonim erkalar suyib.

Yaxshi bola bo'laman doim,
A'lo o'qib zavqqa to'laman.
Onamni shod etib maktabdan,
Besh baholar olib kelaman.

**Diyorbek VAHOBJONOV,
Namangan viloyati, Pop tumanidagi
48-umumta'lum matabining 6-sinf
o'quvchisi**



KO'K CHOY

(Hikoya)

chilarimizga ta'kidlab aymoqchi bo'lganimiz, she'r yozilmaydi. Balki u yuraklarning tub-tubidan quyilib keladi. Ayni bugungi ko'klam tabiatga jon ato etgan bahoriy kunlarda, siz tabiat bag'riga chiqib sayr eting. Yurtimizning bepoyon dasht-u dalalari sizga she'r aytadi. Ayniqsa, bog'larda kuylayotgan qushlarning navosidan bahri-dilingiz ochilsa, ajabmas. Borliqni yurakdan his qilib she'r yozsangiz, o'quvchi

sizning dilingizdagini his etishga erishadi. Sarxush misralar qalbingizni qitiqlab, ijod qilishga undaguncha rang izlashdan to'xtamang. Bu bizning sizga taqdim etayotgan she'riyat darsimizdir. Shuni unutmangki, topqirlik bilan yozgan har bir satringiz bizni hech qachon befarq qoldirmaydi.

AXTAMQULI

DARYO

To'lib-toshib suvlarga,
Sharqirab oqar daryo.
Belab oftob nurlarga,
Yarqirab oqar daryo.

Suvlaring buncha zilol,
Oqadi ko'p sir daryo.
Oqshom shu'lesi hilol,
Yoqadi xo'p Sirdaryo.

Kundan kunga jo'sh urib,
Mavjlanib, suvgu to'lar.
Bizing Sirdaryomizda,
Baliqlar o'ynab yurar.

**Azizbek NURULLAYEV,
Buxoro viloyati, Shofirkon
tumanidagi 17-umumta'lum
matabining 4-«A» sinf o'quvchisi**



YOZNING TUG'ILGAN KUNI

Chopib- chopib o'ynaymiz,
Hech o'yinga to'yamaymiz.
Qo'g'irchoq va koptokni,
Sira qo'ldan qo'yamaymiz.

Bahor kabi beg'ubor,
Hayotimiz mazmuni.
Birinchi iyun ekan,
Yozning tug'ilgan kuni!



**Sarvinoz JUMABOYева,
poytaxtimizning Yakkasaroy
tumanidagi 48-umumta'lum
matabining 2-sinf
o'quvchisi**

To 'Iqin HAYIT

kuni otasi bilan Hojar ammasini tabriklagani gul olib borishgan edi, juda suyundilar. Shukurjon ammasining shirmoy yuzidagi olvorang tabassumi ko'rib, tilla topgan kishiday, terisiga sig'may ketdi. Shundan so'ng ko'p o'tmay, to'garakda ustoz Mirvali aka yordamida «Bobomga» mavzusidagi rasmni doira shaklidagi mis bo'lagiga naqshlay boshladi. Yaqindagina shu ishi bitib, ustozining olqishini oldi.

Yomg'ir yog'ib turar, kun biroz sovuqroq edi. Ichkaridan bobosining ovozi eshitilib, uning xayoli bo'lindi:

- Hay, bolam, nima qilib turibsan, kir ichkariga!
Shukurjon ichkariga kirganda, yana ko'k choyning hidi dimog'iga urildi.

- Bobojon, Navro'z bayrami bilan qutlayman!

Bobosi boshini ko'tardi:

- Ko'p yasha, bolam, o'zingga ham muborak bo'lsin!
Shukurjon oq ro'molchan olib, sovg'asini bobosiga uzatdi. Unda bola nuroniy mo'ysafidga gul tutqazayotgan edi.

Bobosining ko'zlarida nur chaqnadi. - Barakalla, bolam, xo'b yaxshi hunar o'rganibsar, beri kel, bag'rimga bosay! - deya issiq quchog'iga oldi. Ko'k choy hidi Shukurjonning ko'ngliga bahor havosini, yana allaqanday tuyg'unii boshlab kirdi. Nomsiz, ammo shirin tuyg'u! U entikdi. Nihoyat, maqsadiga erishdi.



G'oliblar NAVOIYga yo'l oladi

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tomonidan shu kunga qadar qator loyihibar amalga oshirildi. Ayniqsa, vazirlilik va mutasaddi taxtikilotlar hamkorligida tashkillashtirilgan «Kamolot» shaxmat taxtasi» musobaqasi yoshlar o'ttasida sportning bu turiga qiziqishlarini oshirish, yosh havaskor shaxmatchilarni qo'llab-quvvatlashda muhim omil bo'limoqda.

Yaqinda poytaxtimizdagи «Yoshlar ijod saroyi»da «Kamolot» shaxmat taxtasi» VIII an'anaviy respublika turnirining Toshkent shahar final bosqichi o'tkazildi. Umumta'lum maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi hamda havaskor o'quvchilar ishtirokidagi mazkur musobaqaning quyi bosqichlari dekabr-yanvar oylarida bo'lib o'tgan, bunda poytaxtimizdagи 274 ta umumta'lum maktabi, 112 ta o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining o'n uch mingdan ziyod yosh shaxmatchilarni beshta yosh toifisida bo'yicha qatnashgandi. Turnirning Toshkent shahar bosqichida 110 nafr shaxmatchilar o'zaro kuch sinashdilar.

Zuhra Mannopova, Robiya Tojijeva, Sarvinoz Qilicheva, Valeriya Karantenyen, Madinaxon Qahhorova, Fozilahmad Ismatullayev hamda Jaloliddin G'aniyev, Muhammad Jalolov kabi sportchilar o'z yosh toifasida 1-o'rinni egallashdi. G'oliblar musobaqaning Navoiy shahrida bo'lib o'tadigan respublika bosqichiga yo'l olishadi.

Nishonlik shaxmatchi

Yosh avlodning har tomonloma yetuk va barkamol bo'lib voyaga yetishiда sportning o'rni beqiyos. Ayniqsa, umumta'lum maktablarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, sport to'garaklari-da o'quvchilarining qo'iga kiritayotgan muvaffaqiyatlarini bizni quvontiradi.



Qashqadaryo viloyati Nishon tumanidagi 30-umumta'lum maktabining 7-«B» sinf o'quvchisi Ernazar Xudoynazarov a'lo o'qish bilan birga, sportga qiziqadi. Hozirda maktabda tashkil etilgan shaxmat to'garagi a'zosi. Xudoyberdi bobo nabirasining shaxmatga bo'lgan qiziqishini payqab, baloligidan uni donalar harakati sirlaridan xabardon qilgani, vaqt kelib, uning tengdoshlari orasida g'oliblikka erishishiga asos bo'ldi.

Ernazar joriy yilning boshida huduydagi o'tkazilgan shaxmat musobaqasida faxrli 1-o'rinni, o'tgan oyda tuman musobaqasida 2-o'rinni egalladi.

- Kelajakda men ham Rustam Qosimjonov singari xalqaro musobaqlarda yurtimiz sharafini himoya qilishni istayman. Buning uchun hozirdanoq ustozim Nursoat Imomovning o'gitlariga amal qilyapman, - deydi yosh shaxmatchi.

Ernazar bugungi kunda yangi qurilib, ishga tushirilgan sport zalida navbatdagi musobaqaga tayyorgarlik ko'rmoqda.

Zarnigor MUSAYEVA

HAVAS - G'ALABA KALTI

Bizning Aq-tuba qishlog'imizda sportga qiziquvchi yoshlar ko'plab topiladi. Maktabimizning 5-sinf o'quvchisi Zaripboyeva Malika shular qatoriga kiradi.

Malika a'lo baholarga o'qish bilan birga, sportning milliy kurash turi bilan munzazam shug'ullanmoqda. Ustozlari Baxtiyor Jaqaboyev va O'rinboy Saparovdan kurashning sirlarini o'rganmoqda. Shu kungacha ko'plab musobaqlarda qatnashib, diplomi va medallar sohibasiga aylandi.

- Men sportning milliy kurash turiga yoshligimdan qiziqaman, - deydi Malika. Dastlab, maktabimizdagи to'garakka qatnasha boshladim. Ilk musobaqlarda o'in olishga muvaffaq ishladim. Birinchi g'alabam sira yodimdan chiqmaydi. Ko'p o'tmay, medal hamda diplomlarga ega bo'la boshladim. Men kelajakda do'stlarim, ota-onam, ustozlarim ishonchlarini oqlab, Vatanimiz bayrog'ini yuksaklarga ko'taradigan sportchi bo'lishni xohlayman.

Biz ham o'z navbatida, Malikaning ko'nligidagi ezgu niyatlarini amalga oshishiga tilakdoshmiz.

Ayjamal KARAMATDINOVA,
ToshPTI Nukus filiali qoshidagi
akademik litseyining
1-bosqich o'quvchisi

SPORTSEVARLAR MAKTABI

Bugungi kunda mammalatimizda bolalar sportiga bo'lgan e'tibor va bu borada olib borilayotgan ishlari diqqatga sazovordir. Yosh sportchilarga yaratib berilayotgan imkoniyatlarning natijalari ular erishayotgan yutuqlarda o'z ifodasini topmoqda.

Poytaxtimizdagи 274-umumta'lum maktabida fan to'garaklari qatori sportga ham qiziqish katta. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari boshchiligidagi sport to'garaklari a'zolari ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. O'tgan yillarda davomida «Yosh futbolchilar» jamoasi «Umid nihollari» sport musobaqalarida tuman va shaharda faxrli o'rnlarni egalladi. 9-«D» sinf o'quvchilaridan Ahror Toirov futbol bo'yicha shaharda 1-o'rinni, Hojiakbar Yo'idoshev sambodan 3-o'rinni, 6-«V» sinfdan Sarvinoz Qo'chqorova qizlar o'tasida tennis bo'yicha tumanda 2-o'rinni egalladi, sinfdoshi Sofiya Qosimova esa gimnastika bo'yicha xalqaro turnir g'olibidir. 6-«D» dan Abdushakur Abdusagatov taekvondo bo'yicha shaharda birinchi, 4-«V» sinf o'quvchisi Javlon Rustamov mazkur sport turi bo'yicha Koreyada bo'lib o'tgan xalqaro turnirda g'olib bo'ldi.

O'quvchilarining bu yutuqlarida maktabning jismoniy tarbiya murabbibiylari Sanjar Jo'rayev, Feruza Toshmuhammedova hamda stol tennisi bo'yicha mamlakat championati g'olibii Bunyod Mahamatovning hissasi katta.

A. HAMIDULLAYEV,
N. SULTONOV oliban suratlar



NURBEK



Samolarni quchsin parvozi

1-aprel – Butunjahon qushlar kuni. Bugungi kunda O'zbekiston faunasida qushlarning 19 turkumga oid 440 dan ko'proq turi ma'lum.

Yashash joyiga ko'ra qushlar bir necha yirik ekologik guruhlarga bo'linadi. O'rmon, cho'l va dasht qushlari, suv havzalari, botqoq hamda sohil qushlari. Yil fasillari o'zgarishiga qarab ko'chib yuruvchi va o'troq qushlarga bo'linadi. Qushlarning ko'payishi ichki (gormonal) va tashqi (kun uzunligi va boshqa) omillar

ta'siriga bog'liq. Ularning uya uchun tanlagan joy va qurish usullari turlicha. Qushlar 1 tadan 25 tagacha tuxum qo'yadi. Qushlarning tabiat va inson hayotidagi ahamiyati xilma-xil bo'lib, o'simliklarni changlantrish, ular urug'larini tarqatish, zararkunanda hasharotlar va



kemiruvchilaridan tozalashdan iborat.

Hozirda ularning turlari tobora kamayib bormoqda. Yo'qolib, borayotgan noyob

zotlar, endilikda, «Qizil kitob»ga kiritildi. Ingichka tumshuqli baliqchiquş, Sibir turnasi (oq turna), Afrika – Yevroosiyoning suvda suzuvchi ko'chmanchi qushlarini muhofaza qilish borasidagi hamfikrlik memorandumlariiga binoan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Qushlar Yevropa, Osiyo, Shimoliy va Janubiy Amerika, Janubiy Afrika, Yangi Zelandiya va Janubiy yarim shardagi okeanlar, orollarda ko'proq uchraydi. Ba'zan qushlar bozori bir necha o'n kilometrni egalab, dengiz biologik balansini saqlashda muhim rol o'yaydi.

Dilfuza NIZOMOVA,
Toshkent pedagogika
kolleji o'qituvchisi,
Nodira NAZAROVA

BO'SH OTIRMAY, BOSH QOTIR!

«KITOBALAR MADHL» KRIPTOGRAMMASI

+	21	3	6	2	*	7	*
7	,	19	.	8	11	2	11
2	1	1	1	*	1	5	1
5	3	*	3	8	12	4	15
4	2	9	4	1	8	9	15
9	10	20	14	10	21	6	1
*	1	8	13	10	11	1	12
17	18	19	1	1	1	6	21
7	*	2	16	5	12	2	11
1	3	8	*	2	*	13	*

KALIT SO'ZLAR:

- Bolalarning sevimli janri – 17, 13, 5, 1, 7.
- O'quv qo'llanma – 6, 1, 13, 15, 8, 2, 7.
- Kitoblar xazinasini ta'rifini olgan muassasa – 7, 21, 5, 21, 9, 18, 4, 3, 1.
- Kitob nashri turi – 5, 20, 16, 8, 1, 11.
- Sharq xalqlari she'riyatining asosiy vazn turi – 1, 13, 21, 10.
- Mumtoz mutafakkir shoir Sa'diy Sheroyiz asari – 19, 21, 8, 2, 15, 5, 4, 3.
- Ma'lum tartibda katak va ustunlarga joylashtirilgan ma'lumotlar – 12, 1, 6, 14, 1, 8.

Endi kalit so'zları javoblari asosida kitoblar jildidagi raqamlarni harflar bilan almashtirish yo'li bilan kriptogrammani hal eting. Bunda uordan olim, shoir va tarjimon Shoislom Shomuhammedovning to'rt misra ibratli hikmatini bilib olasiz.

Husn ORIPOV tuzdi

8



Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Muassisalar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'ilmi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Marкази Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtaza SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Vahobjon RAJAPOV,
Zikrilla TESHABOYEV,
Feruza JALILOVA,
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib).

Navbatchi
muharrir
Nurbek
QIDIRALIYEV
Rassom
Feruzbek
KAMOL o'g'li

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel/faks: 244-63-08
Tel/faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi.
Mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 48150
Buyurtma – S 2518

Bahorning iliq,
yomg'irli kunlari edi.
Nodira darslarini qilib
bo'igach, zerika boshladi.
Xonada o'trigisi kelmay, hovliga
chiqqdi. Yomg'irning o'ziga xos
hidi, muzdekk tomchilar yuziga
urildi. Shu payt o'zidan bir
necha qadam narida,
maysalar ustida g'imirlab
yurgan tipratikan bo-
lasiga ko'zi tushdi.



Tipratikan

Nodira unga asta yaqinlashib, kaftlari orasiga oldi. Mittivoi chiqib ketmoqchi bo'lar, tugmachaday qop-qora mitti ko'zlar jovidirab: – Hoy odam, meni qo'yib yubar! – deyayotganday boqardi. Qizaloq uni ayab tok aysridagi xalantaning yoniga bordi. Ajabo! Mittivoi joyida yo'q edi! Qayerga g'oyib bo'lishi mumkin, shu yerda turar, degan xayol bilan ugya kirdi.

Uy ishlari chalg'ib qolib, tipratikan yodidan ko'tarildi. Ertal bilan yostiqdan bosh ko'targanida, lop etib esiga tushdi. Sapchib turib, tok aysridagi xalantaning yoniga bordi. Ajabo! Mittivoi joyida yo'q edi! Qayerga g'oyib bo'lishi mumkin.

Jonivorni yomg'irdan ayab berkitib qo'rganida,unga bu boshpana ma'qul bo'limaldi shekilli, xalta tirkishidan yuqoriga ko'tarilib, yerga tushibdi va juftakni rostlab qolibdi, shumtaka!

Balki onasi xavotir olmasligi uchun oilasiga shoshgan bo'lsa ham, ajabmas.

Gullola KAMOLIDDINOVA,
Farg'onasi viloyati, Besharaq tumanidagi
2-IDUM o'quvchisi

I-aprel – Kulgi va hazil kuni

QO'SHMA GAP



Ona tili darsida,
O'quvchiga ustoz der:
– Qo'shma gap deb nimaga,
Aytildi, Alisher?

– Sizga aytsam aslini,
Rostni qo'shsak yolg'onga.
Siz so'ragan qo'shma gap,
Tayyor bo'lar shu onda.

Umida OYBEKOVA,
poytaxtimizdag'i 20-umumta'l'm maktabining
4-«A» sinfi o'quvchisi



– Oyi, bugun qiziq ish
bo'ldi, men avtobusda bir
xolaning oyog'ini bosib olib,
kechirim so'ragandim, u
menga shokolad berdi!
– Sen, «rahmat» dedingmi?
– Yo'q, ikkinchi oyog'ini
ham bosib oldim...

Fayzulla ABDULLAYEV.

